

## O'RTA OSIYO KULOLCHILIGIDA AYOLLAR ROLI VA JAMIYAT TABAQALANISHINING MADANIY IFODASI



**Muqaddas Akilovna Rizayeva**  
Sotsialogiya fanlari nomzodi  
O'zbekiston Fanlar akademiyasi  
Milliy arxeologiya markazi kata ilmiy hodimi

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-04-08>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Markaziy Osiyoning neolit davriga oid Jaytun va Keltaminor madaniyatlariga tegishli qo'lida yasalgan keramika buyumlarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda keramikalarning texnologik xususiyatlari, ularning bezaklari, aholining turmush tarzi bilan bog'liqligi hamda hunarmandchilikdagi gender jihatlar tahlil qilinadi. Muallif ayollarning keramika tayyorlashdagi ishtirokini tasdiqlovchi arxeologik va etnografik manbalarni tahlil qiladi. Tadqiqot natijasida keramika jamiyatdagi tabaqalanish va qadimgi odamlarning dunyoqarashini aks ettirgan degan xulosa chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** neolit, Markaziy Osiyo, Jaytun madaniyati, Keltaminor madaniyati, ganch o'ymakorligi, gender, ornament, arxeologiya.

**Аннотация:** Статья посвящена изучению лепной керамики джайтунской и кальтаминарской культур неолитического периода Средней Азии. Рассматриваются технологические особенности керамики, ее украшения, связь с образом жизни населения, а также гендерные особенности ремесленничества. Автор анализирует археологические и этнографические источники, подтверждающие участие женщин в изготовлении керамики. Сделан вывод, что керамика отражала расслоение общества и мировоззрение древнего человека.


**Ключевые слова:** неолит, Средняя Азия, Джайтунская культура, Кальтаминарская культура, резьба по ганчу, гендер, орнамент, археология.

**Abstract:** The article is dedicated to the study of hand-made pottery from the Jeitun and Kelteminar cultures of the Neolithic period in Central Asia. It examines the technological characteristics of the ceramics, their decoration, their connection to the population's way of life, as well as the gender aspects of craftsmanship. The author analyzes archaeological and ethnographic sources that support the involvement of women in pottery production. The study concludes that ceramics reflected social stratification and the worldview of ancient people.

**Keywords:** Neolithic, Central Asia, Jeitun culture, Kelteminar culture, hand-made pottery, gender, ornamentation, archaeology.

Kulolchilik insoniyat tarixidagi eng qadimgi hunarmandchilik turlaridan biri bo'lib, dunyoning turli mintaqalarida mustaqil ravishda shakllangan. Neolit davriga kelib, bu hunar o'troq dehqonchilikka asoslangan jamiyatlarning moddiy madaniyatida muhim o'rinnegallagan. Ayniqsa, Markaziy Osiyoning Jaytun va Keltaminor madaniyatları kulolchilikni o'rganish nuqtayı nazaridan alohida qiziqish uyg'otadi. Bu hududlarda tayyorlangan ganchkorlik buyumları faqatgina utilitar — ya'nı kundalik ehtiyojlar uchun emas, balki qadimgi insonlarning ijtimoiy tuzilmasi, gender rollari va dunyoqarashini ham ifodalagan. Kulolchilik buyumlari oziq-ovqat saqlashdan tortib, marosimiy va diniy vazifalargacha bo'lgan turli funksiyalarni bajargan. Shu bois, bu hunarni o'rganish orqali ilk jamoalarning ijtimoiy dinamikasini, mehnat taqsimoti va diniy tasavvurlarini chuqur anglash mumkin bo'ladi. Janubiy Turkmaniston hududida topilgan Jaytun madaniyati yodgorliklari (miloddan avvalgi VII–V asrlar) o'troq dehqonchilik rivoji hamda onalik

(matriarxal) ijtimoiy tuzilmasi bilan ajralib turadi [1]. Xotin-qizlar bu jamiyatda xo‘jalik ishlarida, xususan, kulolchilikda yetakchi rol o‘ynagan. Jaytun soppollar qo‘lda — tasma (coil) usulida yasalib, kuydirishdan avval turli naqshlar bilan bezatilgan: oqimli chiziqlar, to‘r shakllar, nuqtalar va geometrik elementlar idishlarga tushirilgan. Naqshlar asosan temir oksidlari yordamida bo‘yalgan bo‘lib, bu ularga qizg‘ish-jigarrang rang bag‘ishlagan (1-rasm). Jaytun keramikasining ilk namunalarida texnik ixtirochilik bilan bir qatorda, tabiatga moslashuvchanlik va ramziy ifodalar kuzatiladi. Naqshlar ehtimol hosildorlikka umid, suv mo‘lligi yoki yovuz kuchlardan himoyalanish ramzi sifatida ishlatilgan bo‘lishi mumkin.



**1-rasm. Sopol idishlarda tasvirlar**

Kaltaminor madaniyatda kulolchilik: texnologiya va ramziylik

Kaltaminor madaniyati (miloddan avvalgi VI–III asrlar) Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi dasht hamda cho‘l hududlarini qamrab olgan bo‘lib, yarim o‘troq hayot tarziga ega jamoalar bilan bog‘liq. Ushbu madaniyatga xos bo‘lgan sopol idishlar asosan o‘tkir tubli shaklda bo‘lgan — bu esa ularni yerga kavlangan chuqurchalarga yoki ochiq olovdagisi toshlar orasiga joylashtirishni qulaylashtirgan. Keramika tayyorlashda ishlatilgan loy tarkibiga mustahkamlikni oshirish maqsadida qum, maydalangan chig‘anoqlar va tosh bo‘laklari aralashtirilgan. Idishlar yuzasi turli xil bezak usullari bilan ishlangan: shtamplangan naqshlar, kertiklar, botiqlar va ohra (tabiiy pigment) bilan bo‘yalgan izlar keng tarqalgan. Naqsh kompozitsiyalari ko‘pincha zigzaglar, "archa" shakllari, uchburchaklar va romblardan iborat bo‘lgan. Ushbu dekorativ elementlar nafaqat estetik vazifani bajargan, balki ramziy va identifikatsion ahamiyatga ham ega bo‘lgan. Ba’zi hollarda, idishdagi naqshlar ma’lum bir jamoaga yoki hattoki ma’lum bir ayol hunarmandga tegishli bo‘lganligini bildiruvchi belgi sifatida xizmat qilgan. Bu holat kulolchilikning ijtimoiy va madaniy funksiyalarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Keramika ishlab chiqarishda ayollar roli


Qadimda kulolchilik uy mehnatining ajralmas qismi bo‘lib, u jamiyatning turmush tarzi hamda gender tuzilmasi bilan bevosita bog‘liq edi. Etnografik va arxeologik manbalar asosida shuni ishonch bilan ta’kidlash mumkinki, neolit davrida — xususan, Jaytun va Kaltaminor madaniyatlariga xos bo‘lgan sopol buyumlar asosan ayollar tomonidan tayyorlangan. Bu borada Ye.M. Peshchereva va P.A. Putyatinting kabi tadqiqotchilar olib borgan izlanishlar ayollar kulolchilik faoliyatida yetakchi bo‘lganligini ko‘rsatadi [5]. Mazkur xulosani sopol idishlarda saqlanib qolgan mayda barmoq izlari, O‘rta Osiyo etnografiyasida ayollarga xos kulolchilik an‘analari, uy muhitiga bog‘liq naqshlarning xarakteri tasdiqlaydi [7]. P.A. Putyatinting daktiloskopiyasi asosidagi tadqiqotlari natijasida sopol idishlar yuzasida ayollar va bolalarga xos mayda o‘lchamli va o‘ziga xos shakldagi barmoq izlari aniqlangan. Bu izlar sopol tayyorlash, bezak berish va shakllantirish jarayonlarida saqlanib qolgan [6]. Ayollar, odatda, kulolchilik bilan uy sharoitida shug‘ullanganlar, bu jarayonni bolalarni parvarish qilish hamda boshqa xo‘jalik yumushlari bilan birgalikda olib borganlar. Ayollar mehnati, rasmiy tarixiy manbalarda yetarlicha yoritilmagan bo‘lsa-da, kundalik hayotda hamda avloddan-avlodga amaliy bilim va madaniy merosni uzatishda muhim rol o‘ynagan. Bu holat kulolchilikdagi ornament va texnik uslublarning barqarorligida ham o‘z aksini topadi. Ye.M. Peshcherevaning Tojikistonidagi an‘anaviy kulolchilikka oid tadqiqotlarida ham idish tayyorlash ayollarga xos hunarmandchilik sohasi bo‘lganligi alohida ta’kidlanadi. Ayollar sopol buyumlarni kulolchilik charxisidan foydalanmasdan, qo‘lda va asosan uyda yasaganlar. Bu holat bolalarni parvarish qilish, ro‘zg‘or ishlari bilan bir qatorda kulolchilikni olib borishga imkon bergen. Mazkur faoliyat onadan qizga meros tariqasida o‘tgan bo‘lib, kuzatuvchanlik, did, estetik sezgi va saranjomlik kabi ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan. Sopol buyumlardagi naqshlar ko‘pincha nafaqat tabiat manzaralari, balki hunarmand ayolning hissiy holati, turmush tarzini ham ifoda etgan. Ayniqsa, ayollar tomonidan yaratilgan

ganchkor kulolchilik buyumlari shakl va bezaklarning nafisligi, naqshlarning xilma-xilligi va an'anaviy motivlarning barqarorligi bilan ajralib turgan. Ba'zi tadqiqotchilar qadimgi haykaltaroshlik san'atining ilk bosqichlarini ayollar faoliyati bilan — xususan, to'qish, o'simliklarni qayta ishlash kabi mashg'ulotlar bilan bog'laydilar. Bu esa naqshlarning ramziy xarakterini shakllantirishda muhim omil bo'lgan.

Shunday qilib, ayollarning kulolchilikdagi faol ishtiroki nafaqat maishiy ehtiyojlarni qondirish, balki qadimgi jamiyatlarning madaniy barqarorligi, badiiy ifoda va avlodlararo merosning uzviy tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Keramika bezaklari esa o'z navbatida faqatgina dekorativ vazifani emas, balki ramziy-ma'naviy yuklamani ham o'zida mujassam etgan. Geometrik shakllar — doira, uchburchak, to'lqin — tabiat unsurlari (quyosh, tog', suv) ni ifodalagan. Zoomorf elementlar — qo'chqor shoxchlari, ilon shakllari — tumor yoki himoya belgisi sifatida ishlatilgan. Bunday tafsiflar arxeologik topilmalar hamda etnografik parallelellar bilan tasdiqlanadi. Ba'zi hollarda esa naqshlar muqaddaslik tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, ular idishning samoviy olam, yer hayoti va oxirat bilan bog'liq ramziy "hududlarini" ajratishda qo'llanilgan. Natijada, har bir sopol idish neolit davri kishilari tomonidan qabul qilingan olamning ramziy modeli sifatida shakllangan.

Bronza davriga oid dasht madaniyatları — Andronovo, Amirobod va Tozabog'yob madaniyatlarining kulolchilik mahsulotlari esa ko'chmanchi yoki yarim o'troq turmush tarziga moslashganligi bilan ajralib turadi. Chorvachilikka asoslangan bu jamiyatlarda sopol idishlar harakatchan hayat tarziga mos ravishda, oddiy, utilitar shaklda tayyorlangan. Texnik jihatdan bunday keramika qo'pol bo'lib, tarkibida ko'plab aralashmalar — qum, dresva, chig'anoq qismlari bo'lgan. Idishlar kulolchilik charxisisiz, tasma (coil) usulida yasalgani bilan ajralib turadi. Bezashda esa sodda geometrik naqshlar, chiziqlar, shtamplar va kesiklardan foydalanilgan [9].



**2-rasm. Tozabog'yob madaniyati kulolchiligi**

Garchi ushbu idishlarning tashqi ko'rinishi soddaligi va funksionalligi bilan ajralib tursada, arxeologik manbalar ularni tayyorlash jarayonida ayollar faol ishtirok etganini taxmin qilishga asos yaratadi. Ko'chmanchi turmush tarzining qiyin va o'zgaruvchan sharoitlariga qaramay, uy mehnati istisno qilinmagan; aksincha, har bir xo'jalik birligi o'z-o'zini ta'minlashga majbur bo'lgan. Shunday muhitda idish-tovoq tayyorlash faoliyati, odatda, uy-joy yaqinida va oila doirasida amalga oshirilgan. Bu jarayon ovqat tayyorlash, bolalarni parvarish qilish hamda oziq-ovqat zaxiralarini saqlash kabi ayollarga xos vazifalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, sopol buyumlar tayyorlashni ayollar mehnating ajralmas qismiga aylantirgan [1]. Etnografik parallelellar Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasidagi an'anaviy ko'chmanchi jamoalarda ham keramika mahsulotlarini yashash, ayniqsa, qo'l bilan leplab tayyorlash odatda ayollarning zimmasida bo'lganligini tasdiqlaydi. Ayollar nafaqat sopol buyumlarning shakli va bezak motivlarini saqlab qolishgan, balki haykaltaroshlik texnikasini avloddan-avlodga uzlucksiz ravishda yetkazib kelishgan. Hatto og'ir ko'chmanchilik sharoitlarida ham ayollar mehnati moddiy madaniyatni, xususan, kulolchilik an'analarini saqlab qolish va takror ishlab chiqarishda tayanch omil sifatida xizmat qilgan.



### **3-rasm. Sopol buyumlarda tironq naqshlari [2]**

Semantik jihatni ham ta'kidlash lozim: eng oddiy idishlardagi naqshlarda ham ayollarning dunyoqarashi aks etgan. Barqaror motivlar - zigzaglar, "archalar," uchburchaklar - himoya, hosildorlik, uy o'chog'i bilan bog'liq mifologik tasavvurlarga borib taqaladigan ramziylikni o'z ichiga olgan. Kuzatuvchanlik va ritm tuyg'usiga ega bo'lgan ayollar bu naqshlarga o'zlarining tartib va kosmos haqidagi tushunchalarini kiritdilar.

Shunday qilib, hatto shakl funksiyaga bo'ysundirilgan ko'chmanchi madaniyatlar kulolchiligidagi ham ayollarning hunarmandchilik posbonlari, xotira tashuvchilari va madaniy vorisiylik yaratuvchilari sifatidagi muhim rolini ko'rish mumkin.

#### **Xulosa**

Neolit davri O'rta Osiyo sopol buyumlari nafaqat hunarmandchilik mahsuloti, balki jamiyat tuzilishi, ayollarning ishlab chiqarishdagi o'rni, tabiiy sharoit va diniy-mifologik tasavvurlar ta'sirini aks ettirgan. Joytun va Kaltaminor madaniyatlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadi, mintaqaviy farqlarga qaramay, kulolchilik ularni qo'lida yasash, ayollar mehnati, naqshlarning ramziyligi kabi umumiy xususiyatlar bilan birlashtiradi. Bu jihatlar sopol buyumlarni ilk o'troq jamoalarning ijtimoiy tabaqlanishi va ma'naviy hayotini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Keramika nafaqat arxeologik artefakt, balki ming yillar davomida saqlanib qolgan o'tmishdagi ayollarning ovozi hamdir.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Виноградов А.В. Традиционные ремёсла кочевых народов Кавказа. — Махачкала: Дагестанское книжное издательство, 1971.
2. Гей И.А., Путятин П.А. Гендерные аспекты в археологии: отпечатки пальцев на керамике, Археологические исследования в Средней Азии, 1984.
3. Итина М.А. Тазабагъябская культура, Культуры степной бронзы Евразии, М., 1992. 8
4. Литвинский Б.А. Каракумы: искусство и мифология. Душанбе: Дониш, 1978.
5. Массон В.М. Древний Джейтун. Ашхабад: Наука, 1971.
6. Пещерева Е.М. Гончарное производство Средней Азии. М.: Восточная литература, 1959.
7. Путятин П.А. Отпечатки пальцев на керамике как индикатор пола и возраста, Вестник археологии, 1982, №4.
8. Сарианиди В.И. Тайны исчезнувшего искусства Каракумов. М.: Наука, 1967.
9. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М.: Наука, 1948.
10. Хужаназаров М. и др. Неолитическая стоянка Аякагитма, Самарский научный вестник, 2014, №3.